



XOTIRA...

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi
Toshkent davlat transport universiteti
Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi
yoldoshevafarangiz311@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning taniqli adib, jonkuyar ustoz va mahoratli tarjimon Maqsud Shayxzodaga atab yozgan "Maqsud Shayxzoda" she'ri talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: xotira, she'riyat, do'stlik, tasvir, oq, yurak, sur'at.

ОБЪЕМ ПАМЯТИ...

Юлдошева Фарангиз Сайфидиновна.
Ташкентская область транспортный университет
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени
yoldoshivafarangiz311@gmail.com

Абстрактный. В данной статье интерпретируется стихотворение «Максуд Шайхзаде», написанное народным поэтом Узбекистана Усманом Азимом известному писателю, страстью педагогу и искусному переводчику Максуду Шайхзаде.

Ключевые слова: память, поэзия, дружба, образ, белый цвет, сердце, скорость.

MEMORY...

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna
Tashkent state transport university
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student
yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Abstract. This article interprets the poem "Maqsud Shaikhzade" written by the national poet of Uzbekistan Usman Azim to the well-known writer, passionate teacher and skilled translator Maqsud Shaikhzade.

Key words: memory, poetry, friendship, image, white, heart, speed.



Taqdir-u insonga nimani ravo ko'rganligini umuman bilolmaysiz. Bu hayotda sizni nima kutib turganligini bilmaysiz ekan kishi. Yosh Maqsud boshiga 1927 yilda o'z yurtidan o'zga yurtlarga ketish savdosi bor ekan. Qadrdon shahri, jonajon vatani, yaqin do'stlari va oilasidan birvarakayiga ketish uning uchun juda katta musibat edi. Ammo u so'nib qolmadi. Toshkentga kelganidan so'ng o'zi uchun yangi dunyo kashf etdi. Yangi do'stlar orttirdi. O'zi uchun yangi adabiy muhit yaratdi. O'z ijodini 1929 yilda boshlagan Maqsud Shayxzoda 1932 yilda o'zining ilk kitobini "O'n she'r" nomi ostida chop ettirdi. Undan keyin shoirning birin-ketin qator kitoblari nashrdan chiqdi. Xususan, 1933 yilda "Undoshlarim", 1934 yilda "Uchinchi kitob" va 1935 yilda "Jumhuriyat" va yana boshqalar. Albatta o'sha davrdek mashaqqatli yillarda bunday jasorat ko'rsatish oson ish emasdi. Ammo adib bu ishni uddaladi. U 1935—1938 yillarda esa Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938 yildan to umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, yuqori malakali kadrlar tayyorladi. Urush yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi «Kurash nechun» (1941), «Jang va qo'shiq» (1942), «Kapitan Gastello» (1941), «Ko'ngil deydiki...» kabi she'riy to'plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publisistik asarlarini yaratdi.

Urushdan keyini tinch qurilish yillarida qatag'onlik jabrini tortgan bo'lsa ham, o'z el-yurtiga fidoiy shoir Vatanimiz bo'y lab keng quloch yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash haqida «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni» kabi she'riy to'plamlarini yaratdi.

1958 yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni yaratildi. Iste'dodli dramaturg 1960 yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida buyuk o'zbek munajjimi va ma'rifatparvar podshosi obrazini yaratdi. Shayxzoda Pushkinding «Mis chavandoz», Lermontovning «Kavkaz asiri», Mayakovskiyning «Juda soz» dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning «Hamlet», «Romeo va Julietta» tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, ozarboyjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga ag'dardi. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi.



Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoир tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti namoyondalarining mahorat mактабидан ta’lim olib, ilg‘or an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan she’rlar yozgan.

Shayxzoda 1967 yil 19 fevralda vafot etdi. U Toshkentning Forobiy qabristonida dafn etilgan.¹

Shoир juda qisqa 59 yil umr ko’rishiga qaramay, u o’zidan keyingi avlodga munosib ijodiy meros qoldira oldi deyolamiz. Shu o’rinda Maqsud Shayxzodaga atab juda ko’plan shoир va yozuvchilar shuningdek, shoирning yaqin do’stlari, tanishlari, hamkasblari va shogirdlari iliq fikrlar bildirishgan. O’zbekiston va qo’shni xalqlarning yetuk adabiyot darg’alari shoир sharafiga ajoyib she’r va kiroblar yozgan.

Shu o’rinda O’zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning Maqsud Shayxzodaga atab yozgan “Maqsud Shayxzoda” she’riga nazar solsak.

Suratimni chizmoq uchun,
Oppoq bo’yoq tanlading.
Bu dunyoga nega kelib,
Ketganimni angladning.
Qo’llarimning tasviriga,
Yugurtirding oq bo’yoq.
Yuzimni ham oqqa bo’ya,
Yuzim doim bo’lgan oq.

Bu misralarda aynan Maqsud Shayxzoda tilidan aytilgan bu jumlalar hayotga kelib ketmoqlikning asl ma’nosи nimada ekanligi va bu jarayonda umrimni shunday yashab o’tdimki, endi mening yuzlarimni oqqa bo’yassing mumkin chunki uning ranglariga endi faqat oq rang yarashadi degandek tasvirlangan.

Kurashlarda garchi yengdim,
Shukur, vijdон beyamoq.
Chizavergin imonimni,
Imongoh- yurak oppoq.
Xo’sh, nimani o’ylab qolding,
Qanday bo’lur tevarak?
Ha, suratning tevaragi,
Bu dunyoyi charxpalak.

¹ ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/maqsud-shayxzoda-1908-1967



Umrим тугаб борар екан босиб о'tган умримдан миннатдорман. Qachondир kurashган bo'lsam albatta yutganman, faqat halol yo'l ila. Bugun sarhisob fursati екан, ko'ksimdagи vijdon shukur bugun yamoqlar bilan to'lмаган deydi shoир umri poyonida.

Bu dunyonи tushuntiray,
Menga yaxshi so'z bo'ldi.
Men duch kelsam qay odamga,
Bir umrga do'st bo'ldi...
Yo'q! Bekor gap do'stlarimdan,
Faqat yaxshilik topdim.
Demak, surat tevaragin,
Oppoq bo'yoqda yopgin.
Qora rangga qo'l tekkizma,
Shavqat ham kerak andak!
Men kechirdim, nahotki, sen,
Kechirmaysan, kelajak...

Men hamisha atrofimdagilarga yaqin bo'lishga harakat qildim. Balki shu uchundир men bilan kim suhbat qursa, u mening do'stimga aylanardi. Atrofingizdagilarga qanday munosabatda bo'lsangiz ular ham siz uchun aynan shunday munosabatda bo'ladi. Ammo ba'zilar bor ularga har qancha bo'lsangiz ham faqri yo'q. ularning o'zining olami bor va ular bu olamidan hech ham chekkaga chiqishmaydi. Bu kabi insonlar uchun men e'tibor bermadim va hayotimning ular bor qismini ham oppoq ranglar bilan tasvirladim. Bu inson o'zi uchun qila olgan eng oliv yaxshilik deb hisoblayman deydi. Ularni shunchaki kechirish kerak. Shavqat qilish kerak. Chunki bu foniy dunyoda bularning bari vaqtinchalikdir. Sen! Ey kelajak! Nahotki bularni kechirmaysan degan ibratli savol bilan tugagan ushbu she'r.

Darhaqiqat, insonning kim ekanligi uning amallari bilan o'lchanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/maqsud-shayxzoda-1908-1967
2. <https://arboblar.uz/uz/people/shejkhzade-maksud-magsumbekovich>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/maqsud-shayxzoda-1908-1967>